

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

THE CONCEPT OF DROPPIN AND ITS PREVENTION

Isomiddinov Sadirdin G'anijonovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi

Abstract

In the 21st century, the processes of global digitalization and the expansion of e-commerce are fundamentally changing the form and content of economic relations. Trade through Internet platforms, the introduction of online payment systems, digital banking services not only ease people's lives, but also create conditions for the commission of new types of offenses through these systems. In particular, among such criminal activities as untraditional financial fraud, money laundering in digital networks, crimes involving virtual property, the phenomenon of "droppin" is manifested as a particularly dangerous socio-legal phenomenon [1].

Introduction

XXI asrda global raqamlashuv jarayonlari va elektron tijoratning kengayishi iqtisodiy munosabatlar shakli va mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Internet platformalari orqali savdo-sotiq, onlayn to'lov tizimlari, raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi insonlar hayotini yengillashtiribgina qolmasdan, balki aynan shu tizimlar orqali yangi turdagi huquqbuzarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratib bermoqda. Jumladan, noan'anaviy moliyaviy firibgarlik, raqamli tarmoqlarda pul yuvish, virtual mulkka oid jinoyatlar kabi kriminal faoliyatlar qatorida "droppin" fenomeni alohida xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Droppin odatda uchinchi shaxsning bank kartasi, elektron hamyoni yoki moliyaviy hisob raqamidan noqonuniy daromadlarni qabul qilish yoki o'tkazish maqsadida foydalanishni nazarda tutadi. Bu jarayon ayniqsa firibgarlik

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eureka.aoa.com/index.php/4>

jinoyatlari, pul yuvish hamda transmilliy moliyaviy jinoyatlar amaliyotida keng qo'llanilayotgan vositachilik mexanizmi sifatida talqin etiladi. Jinoyatchilikni o'rganish sohasidagi xorijiy tadqiqotlarda bu xodisa "money mule activity" yoki "illicit financial intermediary" nomi bilan izohlanadi[2]. Luksemburg politsiyasi hisobotida qayd etilishicha, 2023 yilda Yevropada aniqlangan noqonuniy tranzaksiyalarning 68 foizi aynan droppin vositasida amalga oshirilgan bo'lgan[3].

Xalqaro tashkilotlar, xususan, INTERPOL, EUROPOL va FATF (Financial Action Task Force) hisobotlarida droppin faoliyati noqonuniy pul mablag'larini qonuniy iqtisodiyotga kiritishning birinchi bosqichi sifatida baholanadi. EUROPOLning 2022 yilgi tahlillariga ko'ra, faqat Yevropa Ittifoqi hududida 10 mingdan ortiq shaxs noqonuniy tranzaksiyalarda vositachilik qilgani uchun javobgarlikka tortilgan bo'lib, ularning aksariyati yoshlar va talabalar bo'lgan. AQSh Federal Tekshiruv Byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2023 yillar oralig'ida 19 000 nafar fuqaro firibgarlik sxemalariga vositachi sifatida jalb etilgani, ularning 45 foizi bu faoliyatning huquqiy oqibatlaridan bexabar bo'lgani aniqlangan[4].

Droppin faoliyatiga jalb etilgan shaxslar ko'pincha huquqbuzarlikning sub'ekti emas, balki bilvosita jabrlanuvchisi (viktimi) sifatida namoyon bo'ladi. Jabrlanuvchi shaxslar, odatda, moliyaviy qiyin ahvolga tushgan, oson daromad izlayotgan, raqamli savodxonligi past hamda internetdagi manipulyativ axborot ta'siriga tez beriluvchi toifalardir[5]. Ularning noxush natijada jinoiy sxemalarga vositachi sifatida jalb etilishi nafaqat shaxsiy huquqiy oqibatlarga, balki jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va huquqiy ongning yemirilishiga olib keladi[6]. Shu bilan birga, droppinning xavfi nafaqat iqtisodiy yo'qotishlar yoki individual zarar bilan cheklanib qolmaydi. U moliyaviy xavfsizlik tizimini zaiflashtiradi, bank tizimlari va to'lov platformalariga bo'lgan ishonchni kamaytiradi, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

jinoyatchilikning yangi shakllari va usullarining shakllanishi uchun zamin hozirlaydi.

O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, onlayn savdo va elektron to‘lov tizimlarining ommalashuvi bilan birga droppin faoliyatining ayrim ko‘rinishlari kuzatila boshlandi. Bank kartalarini ijaraga berish, elektron hamyonga uchinchi shaxsni ulash, Telegram va ijtimoiy tarmoqlarda “oson daromad”, “onlayn yordamchi”, “bank account rental” kabi reklama e’lonlarining ko‘payishi ushbu xavfning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq ushbu hodisa hali ham milliy huquqiy, kriminologik va viktimologik nuqtai nazardan yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu munosabat bilan droppinning ijtimoiy-huquqiy mohiyati, uning viktimologik xususiyatlari, shakllanish mexanizmlari, xavf omillari hamda profilaktika choralarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat huquqiy tizimni takomillashtirish, balki raqamli xavfsizlik, moliyaviy savodxonlik va viktimologik profilaktika mexanizmlarini rivojlantirish uchun ham muhimdir.

Droppin (ingl. *money mule activity*) - bu o‘zining bank kartasi, elektron hamyoni yoki shaxsiy moliyaviy hisob raqamidan uchinchi shaxsga foydalanish huquqini berib, noqonuniy daromadlarni qabul qilish, o‘tkazish yoki yechib olishda vositachi sifatida qatnashish hodisasidir. Jinoyat nazariyasi va viktimologiya fanlarida droppin faoliyati odatda *firibgarlikning yordamchi shakli*, bank resurslaridan noqonuniy foydalanish yoki *pul yuvishning vositachilik mexanizmi* sifatida baholanadi.

Droppin sifatida namoyon bo‘ladigan shaxs odatda jinoyatni bevosita sodir etishda ishtirok etmaydi, biroq uning vositachilik faoliyati jinoyatning amalga oshirilishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur toifadagi shaxslar jinoyat sodir etilishiga ko‘maklashuvchi axborot, aloqa yoki boshqa turdagi yordamni taqdim etishi orqali jinoyatning amalga oshirilishi uchun sharoit yaratadi. Shu sababli, bunday shaxslar jinoyatning ham sub’ekti (ya’ni, jinoyat

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

faoliyatida ishtirok etuvchi shaxs), ham potensial jabrlanuvchisi (viktimologik nuqtai nazardan) sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Ushbu holat droppinning ikkiyoqlama huquqiy va viktimologik maqomga ega ekanligini anglatadi. Bir tomondan, u jinoyat mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, ma'lum darajada jinoyatning ishtirokchisi hisoblanadi; ikkinchi tomondan esa, jinoyatchilar tomonidan foydalanilgan, aldanishi, firib qurboniga aylanishi yoki zo'ravonlikka uchrashi ehtimoli yuqori bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, droppin fenomenini baholashda shaxsning nafaqat huquqiy, balki viktimologik holati ham chuqur tahlil qilinishi zarur.

Droppin odatda quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

ijtimoiy tarmoqlar, anonim chatlar, Telegram-kanallar va reklama e'lonlari orqali "oson daromad", "rasmiy bo'lmagan onlayn ish", "hisob-raqam yordamchisi" kabi takliflar tarqatiladi;

ishonuvchan, tajribasiz, moliyaviy qiyinchilikda bo'lgan yoki raqamli savodxonligi past shaxslar oson daromad va'da qiluvchi shubhali takliflarga rozi bo'ladilar;

jabrlanuvchi o'zining shaxsiy bank kartasi yoki onlayn hamyoni orqali uchinchi shaxslarga pul mablag'larini o'tkazish yoki ko'rsatmaga ko'ra yechib berishda qatnashadi;

droppin faoliyatiga jalb qilingan shaxs jinoyatchilik guruhlari tomonidan aldanib foydalanilgan bo'lishi mumkin, biroq amaldagi qonunchilikka ko'ra u jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin[7].

Droppin faoliyati quyidagi oqibatlariga olib kelishi mumkin:

- a) moliyaviy firibgarlikning ommalashuvi;
- b) pul yuvish mexanizmlarining takomillashuvi;
- c) yoshlar va talabalar o'rtasida huquqbuzarlik xavfining ortishi;
- d) jamiyatda qonunga nisbatan ishonchsizlik va huquqiy nigilizmning kuchayishi;

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

e) axborot texnologiyalaridan jinoyatchilik maqsadida foydalanish ko‘lamining kengayishi[8].

Droppin faoliyatiga jalb etilgan shaxs ko‘pincha bilvosita jabrlanuvchi, ya’ni *viktimlik darajasiga ega shaxs* hisoblanadi. Ularda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- a) ijtimoiy-iqtisodiy qiyin ahvol (talaba, ishsiz);
- b) raqamli savodxonlikning pastligi;
- c) qisqa muddatli “oson daromad” illyuziyasi;
- d) internetdagi xavf va aldov mexanizmlaridan bexabarlik;
- e) psixologik manipulyatsiyaga tez berilib ketish[9].

Shu bois droppin profilaktikasi faqat huquqiy choralarni emas, balki viktimologik himoya, axborot-psixologik barqarorlik kabi kompleks yondashuvni talab qiladi. Droppin fenomenining xavfli ijtimoiy-huquqiy xususiyatidan kelib chiqib, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli, huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlarda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu profilaktika choralari nafaqat retrospektiv, balki progressiv tavsifga ega bo‘lib, droppinning kelib chiqishiga imkon beradigan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi lozim[10].

a) Amaldagi qonunchilikda droppin tushunchasining huquqiy ta’rifi va uning faoliyatining huquqiy maqomi to‘liq ifodalanmagan. Shu bois, uning huquqiy tabiati, jinoiy faoliyatdagi rolini, javobgarlik doirasini aniq belgilash orqali huquqni qo‘llovchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, uni huquqbuzarlikning alohida shakli yoki vositachi sifatida huquqiy tasniflashni taqozo etadi.

b) Bank hisobvarag‘ini boshqa shaxsga foydalanish uchun berish holatlari aksariyat hollarda droppinning amalga oshishiga xizmat qiladi. Shu bois, bank xizmatlaridan foydalanish qoidalarini takomillashtirish, ayniqsa, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishda shaxsiy identifikatsiyani kuchaytirish zarur.

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaaoa.com/index.php/4>

- c) Droppin vositachilik xarakteriga ega bo‘lganligi bois, uning faoliyati ayrim holatlarda jinoyatning bevosita sub’ekti sifatida baholanishi mumkin. Shu bois, Jinoyat kodeksiga maxsus modda sifatida vositachilik va droppin faoliyati uchun javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq.
- d) Shaxsiy bank hisoblarini boshqa shaxs ixtiyoriga berish bilan bog‘liq huquqiy cheklovlarni kuchaytirish, mazkur faoliyat uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilash profilaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.
- e) Droppining keng tarqalishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri aholining raqamli xavfsizlik va moliyaviy munosabatlar bo‘yicha savodxonlik darajasining pastligi. Shu bois, yoshlar va talabalar o‘rtasida mediasavodxonlik va moliyaviy xavfsizlik bo‘yicha tizimli targ‘ibot ishlarini tashkil qilish muhim.
- f) Zamonaviy aldov sxemalari va droppin faoliyatining yangi shakllari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali targ‘ibot materiallari tayyorlash zarur.
- g) Noxush oqibatlarini oldindan anglatish maqsadida psixologik maslahat va ijtimoiy profilaktika xizmatlarining salmog‘ini oshirish, ayniqsa xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan individual tarbiya ishlarini tashkil etish muhim.
- h) Droppin faoliyati aksariyat hollarda internet-platformalar orqali amalga oshiriladi. Shu bois, maxsus algoritmlar asosida xavfli e‘lonlarni aniqlash va ularni bloklash tizimini kuchaytirish zarur.
- i) Droppinning negizini tashkil etuvchi aldov sxemalari va oqibatlarini ommaga sodda va tushunarli tarzda yetkazish maqsadida ijtimoiy roliklar, videomateriallar, infografika va animatsion materiallar ishlab chiqish samarali usul hisoblanadi.
- j) Aholini SMS-xabarnomalar orqali droppin sxemalari, aldov usullari va bank hisoblarini taqdim etish oqibatlari haqida ogohlantirish kiber xavfsizlikning muhim profilaktik yo‘nalishlaridan biridir.
- k) Droppin bilan bog‘liq holatlarni barvaqt aniqlash, tahlil qilish va oldini olishda idoralararo axborot almashinuvi, yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish,

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

monitoring va tahdidlarni baholash tizimining samaradorligi katta ahamiyat kasb etadi.

l) Droppin bilan bog‘liq huquqbuzarliklarda ishtirok etgan yoki xavf guruhida bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlarni yagona elektron baza orqali boshqarish, prognoz qilish imkoniyatlarini oshiradi.

m) Droppinning amalga oshishiga imkon beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillarni tahlil qilish, xavfli tendensiyalarni oldindan aniqlash va prognostik profilaktika choralarini joriy etish zarur.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, droppin raqamli iqtisodiyot davrida vujudga kelgan yangi ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, u nafaqat firibgarlik jinoyatining yordamchi mexanizmi, balki ijtimoiy xavfli kriminal fenomen sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning profilaktikasi kompleks yondashuvni, ya’ni huquqiy, axborot-psixologik, viktimologik hamda institutsional mexanizmlarni birlashtirgan holda amalga oshirilganda samarali natija beradi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Долгова А.И. Криминология. — Москва: Норма, 2022. — 560 б. (84-б.).
2. Europol. Internet Organized Crime Threat Assessment (IOCTA). — The Hague, 2022. — P.17, 21.
3. <https://today.rtl.lu/news/luxembourg/luxembourg-police-handle-over-40-000-cases-in-2023-2195642>
4. Кудрявцев В.Н. Общая теория преступления. — Москва: Юристъ, 2019. — 352 б. (203-б.).
5. Абдуллаев Г.Т. Виктимология асослари. — Тошкент: Юристар нашриёти, 2021. — 180 б. (64-б.).
6. Миньковский Г.М. Преступление и личность. — Санкт-Петербург: Питер, 2020. — 288 б. (97-б.).
7. Ollamov Y.Y. Raqamli firibgarlik: huquqiy va viktimologik tahlil. — Tashkent, 2023. — 76 б. (35-б.).

Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 01, Issue 02, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

8. Sharafutdinov A.O. Raqamli xavfsizlik va jinoyat profilaktikasi. — Toshkent: Adolat, 2024. — 136 b. (44-b.).
9. С.Ғ.Исомиддинов. “Фирибгарлик жиноятининг виктимологик профилактикаси бўйича хорижий давлатлар тажрибаси таҳлили”. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.10889327/>
10. С.Ғ.Исомиддинов. “Фирибгарлик жинояти виктимологик профилактикасида учраётган айрим муаммоларнинг ечимлари”. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. <https://scientific-jl.com/tra/article/view/27427/26677>